



САМАРҚАНД – 2020

**ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ОЛИЙ ВА ЎРТА МАХСУС
ТАЪЛИМ ВАЗИРЛИГИ
САМАРҚАНД ДАВЛАТ ЧЕТ ТИЛЛАР ИНСТИТУТИ
“ГУМАНИТАР ФАНЛАР ВА АХБОРОТ ТЕХНОЛОГИЯЛАРИ”
КАФЕДРАСИ**



**“ЎЗБЕКИСТОННИНГ МУСТАҚИЛЛИК ДАВРИДАГИ ЯНГИ
ТАРИХИ ВА ФАЛСАФИЙ ТАФАККУРИНИНГ ДОЛЗАРБ
МУАММОЛАРИ”**

республика илмий-амалий
конференцияси материаллари

САМАРҚАНД – 2020

1. Ал-Фараби. Философия политики.-М.: "Просвещение", 1989 г.с.529.
2. Ал-Форобий. Фозил шаҳар аҳолиси. -Т.: Шарқ, 1999.- б. 69
3. Беруний Абу Райҳон. Танланган асарлар. 1-жилд.-Т.: "Фан", 1968 й. 16-17 б.
4. Годфруа Ж. Что такое психология. Т.2.-М.:1996 г.с.10.
5. Шермухамедова Н. Фалсафа.: ўқув услубий мажмуа.-Тошкент:"Ношир",2012.б-576.
6. Ирисов.А.Абу Райҳон Беруний ҳикматлари.-Т.; "Ёш гвардия", 1973 й.40-43 б.р
7. Ибн Сина. Даниш-наме. Душанбе, 1957г.- с .59
8. Форобий. Фозил одамлар шаҳри.-Т.; Абдулла Қодирий номидаги нашриёт, 1993 й. 69-б
9. Тейяр де Шарден. Феномен человека.-Москва: "Радуга". 1987г.с.40.

O'ZBEK TILIDAGI SAN'AT TERMINLARI TARJIMASIDA MILLIY O'ZIGA XOSLIK VA LINGVISTIK TAHLIL

**BuxDU Nemis va fransuz tillari
kafedrasi o'qituvchisi Gulchehra Hojiyeva
BuxDU talabasi
Hamdamov Temur**

Tarixdan ma'lumki, insoniyatning eng buyuk kashfiyoti shubhasiz "til"dir, zero insonni hayvondan ajratib turuvchi ham uning tili hisoblanadi. Zamonlar osha rivojlanib, taraqqiyotga yuz tutgan tillar qatori davrlar o'tishi bilan o'z tashuvchisi (shu tilda so'zlashuvchi)ga ega bo'lmagan yo'qolib borayotgan tillar — *o'lik tillar* (jonli iste'moldan chiqqan (tabiiy so'zlashuv tili bo'lmagan), yozma yodgorliklarda saqlangan til. Masalan, shumer, lotin, etrusk, yunon, qadimiy slavyan, pruss, vestgot, ostgot, italiy, gall, gyozi, kopt (qibtiy), o'rxun, qad uyg'ur, eski o'zbek, qadimiy fors, sanskrit, pali, prakrit, bulg'or va boshqalar) [1.] ham yo'q emas. Shu sabab bir tilning mavjud bo'lishi, davr bilan hamohang va barhayot yashashida nafaqat aynan shu tilga xos bo'lgan so'zlar, balki dunyo yangiliklarini o'zida aks ettirgan xorijiy atamalar ham muhim o'rin tutadi. Chunki til taraqqiyotidan ma'lumki, duyoda faqat o'zining sof til birliklariga — terminlariga ega bo'lgan biror til mavjud emas va bunday o'zga tillardan termin o'zlashtirish jarayoni to'xtovsiz davom etadi.

Tilda sodir bo'ladigan bu kabi holatlarni bevosita o'rganuvchi soha, tilshunoslikning muhim bo'gini hisoblangan *terminologiya* bo'lib, bugungi kunda ushbu sohaning eng oldinda turgan vazifalaridan biri — turli tillarni qitosiy o'rganishdir.

Tadqiqot davomida o'zbek tiliga xos san'at terminlari va ularning fransuz tilidagi tarjimalari lingvistik va kulturologik xususiyatlariga ko'ra misollar asosida qiyosiy tahlil ostiga olingan.

1-misol.

- ✓ **balkon** balcon *m.*
- ✓ **dialog** dialogue *m.*
- ✓ **diplom** diplôme *m.*;
- ✓ **disk** disque *m.*
- ✓ **jaz** *mus* jazz *m.*
- ✓ **klub** club *m.*
- ✓ **klassik** classique.
- ✓ **komik** comique.
- ✓ **seans** séance *f.*
- ✓ **vokal** vocal.

Ushbu misollarning lingvistik tahlilidan o'zbek tilidagi terminlar boshqa tildan o'zlashgan so'zlar sirasiga mansub bo'lib, ular o'zining fransuz tilidagi o'girmasi bilan o'zaro ohangdosh va to'g'ridan-to'g'ri ekvivalentligini ko'rish mumkin.

2-misol.

- ✓ **segoh** une des six parts du chachmaqam (Shashmaqomning olti maqomidan biri) ;
- ✓ **tanbur** *mus* instrument *m* à 3 ou 4 cordes (3 yo 4 torli musiqiy asbob) ;
- ✓ **toqil** *mus* partie *f* du maqâm (maqom bo'lagi) ;
- ✓ **tor** *mus* instrument *m* à cordes (torli asbob)
- ✓ **ushshoq** *mus* type de mélodie appartenant au maqâm (maqomga doir musiqa turi) ;
- ✓ **yor-yor** nom d'une chanson traditionnelle de mariage (nikoh to'yida kuylanadigan ananaviy qo'shiq nomi) ;
- ✓ **shashmaqom** *mus* œuvre *f* musicale classique ouzbèque composée de six parties (olti qismdan iborato'zbek mumtoz musiqiy asari).
- ✓ **shashtor** *mus* instrument *m* de musique à six cordes (olti torlik musiqiy asbob).

- ✓ **rubob** *mus instrument m traditionnel à cordes* (ananaviy torli asbob).
- ✓ **rubobchi** *joueur, euse de rubob* (rubob chaluvchi).

Mazkur misollarni qiyosiy tahlillaganda, lingvistik nuqtai nazardan o'zbek tilidagi terminlarning fransuz tilidagi tarjimalari bir yoki bir nechta so'zlar vositasida hosil qilinganligi, milliy-madaniy xususiyatiga ko'ra esa, ushbu atamalarning faqat o'zbek tiliga xos bo'lib, fransuz tilida aynan muqobili mavjud bo'lmaganligi sabab, o'girmalar izoh shaklida keltirilganligi e'tiborga molik.

3-misol.

- **doira** *mus* 1) *tambour m de basque*;
2) *tambourin m*.
- **nay** 1) *flute f*;
2) *tube m*;
3) *instrument m de musique national*;
4) *chaluveau m*.

yevstaxiy **nayi** *anat trompe f d'eustache*.

- **naycha** 1) *tube m*;
2) *petit tube*;
- **naychi** *flûtiste mf*.

Ushbu o'rinda esa aksincha, ya'ni o'zbek xalqiga mansub cholg'u asboblari tarjimasining fransuz tilida aynan o'z ekvivalentiga ega ekanligi, tarjimada har ikkala tomonning milliy til xususiyatlari saqlanganligini ko'rish mumkin.

4-misol.

- **karnay** 1) *long instrument à vent, en forme de trompe* (surnay shaklidagi puflab chalinadigan uzun soz).
karnaycha *trompette f*.
- **cholg'u** *instrument m de musique* (musiqqa asbobi).
cholg'uchi *musicien, ienne*. [2.]

Yuqoridagi misollar tarjimasiga e'tibor qilinsa, "karnay" va "cholg'u" so'zlari aynan faqat o'zbek milliy musiqa sohasiga xos bo'lgan terminlar ekanligi sabab, ular tarjimasining atamalar mazmunini izohlovchi so'zlar vositasida hosil qilinganligi, shu

terminlar asosidan yasalgan “**karnaycha**” va “**cholg'uchi**” so'zlari o'girmalarining esa fransuz tilidagi ekvivalentlarga ega ekanligi oydinlashadi.

Olib borilgan tahlillar yuzasidan xulosa qilib, aytish mumkinki, o'zbek va fransuz tillaridagi san'at terminlari tarjimasida har ikkala xalqda mavjud bir-biriga juda o'xshash atamalar nomlari o'zaro ekvivalentlik hosil qilishi bilan birga, ayrim o'zbek musiqa asboblari nomining fransuz tilidagi muqobili bo'lmaganligi sabab, ularning tarjimasini o'z milliy til xususiyatini saqlagan holda o'girilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar :

1. https://uz.wikipedia.org/wiki/O%CA%BBlik_til
2. Жўраева М.М., Ҳожиёва Г.С. Ўзбекча-французча французча-ўзбекча луғат (dictionnaire ouzbek-français français-ouzbek), Муסיқа ва санъат соҳасига оид икки тилли луғат (ўқув-методик қўлланма). Бухоро, 2019 . - 184 б

САНЪАТ ТЕРМИНЛАРИ ТАРЖИМАСИНИНГ ЛИНГВО-МАДАНИЙ ХУСУСИЯТЛАРИ

(француз ва ўзбек тиллари мисолида)

*Ҳожиёва Гулчехра Салимовна
Бухоро давлат университети
мустақил тадқиқотчи*

Инсон яралибдики, унинг босиб ўтган ҳар бир тарихий излари маълум ютуқлар билан характерланади, жумладан, XXI аср нафақат техника ва технологиялар асри, балки, тилга, хусусан, хорижий тилларга бўлган эътиборнинг юксак даражага кўтарилган даври десак, муболаға бўлмайди. Зеро бугунги кундаги интеллектуализмнинг ёрқин мисоли сифатида ўз тили билан биргаликда камида иккита чет тилини мукамал билиш ҳам назарда тутилади.

Маълумки, тил миллий маданиятнинг энг муҳим таркибий қисми ҳисобланади, сўз эса, халқ маънавияти, фалсафаси ва тарихини тушунишга имкон берувчи воситадир. Шу жиҳатдан, жаҳон тилшунослигида ҳар бир миллий тилнинг ўзига хос хусусиятларини илмий асосда ўрганиш ҳамда уларни келажак авлодга етказиш илм-фан жадал ривожланган бугунги кунда муҳим аҳамият касб этмоқда.

Тилдаги сўз бойлигини ўрганмай туриб, халқнинг ўзлигини ифодаловчи бой маънавий мероси ҳамда тарихини мукамал билиб бўлмайди. Зеро, ҳар бир ўрганилган тил инсонга янги ҳаёт бағишлайди. Ушбу ғояни француз адиби

Хатамов Фарход Фахритдинович	Права человека в рамках информационного общества	370
Холиқов Тохир Ортиқович	Таълим жараёнини инновацион ривожлантиришда интернет технологияларининг ўрни	373
Ҳ.Қ. Жаббарова	Таълим-тарбия жараёнида ахборот ва компьютер технологияларининг фалсафий асослари	376
Aliyev Baxtiyor	Sog'lom turmush tarzi komponentlarining insonlar hayotidagi ahamiyati	380
Kubayev Faxriddin	Abu Ali ibn Sino ilmiy-ma'naviy merosida sog'lom turmush tarzi madaniyatini shakllantirish masalalari	384
Ahrorova Madina Rahmatovna	O'zbek mumtoz shoirlari ijodida gender tengligi masalasi.	386
Кубаева Шоира Тошмуродовна	Соғлом турмуш тарзи маданиятини шакллантиришда ўйин фаолиятининг аҳамияти	391
Valiyev Zokir Sulaymonovich	Sport va harakat sog'lom turmush tarzi - rivojlanishining muhim omili sifatida (ijtimoiy-falsafiy tahlil)	393
Саидов А.И	Оилада соғлом турмуш тарзини шакллантириш муаммосининг ижтимоий-психологик омиллари	396
Д.Б.Комилов	К вопросу о взаимосвязи языка и культуры как основного объекта лингвокультурологии	401
Ашурова Шахло Сагдуллаевна	Ўзбек тиллари ўқитишда тил ва тафаккур шакллантириш	407
Д.Баракаева	Методологические проблемы и обсуждение деталей на иностранных языках	409
<i>М.А.Хандамова</i>	Беруний асарларидаги инсонпарварлик ғояларининг тарбиявий аҳамияти	418
Холиқов Тохир Ортиқович	Таълим жараёни сифатини ривожлантиришда инновацион технологияларидан фойдаланиш	420
Murtozayev Shahobiddin Baxriddinovich	Inson hayotida o'zini anglashning mohiyati.	423
Gulchehra Hojiyeva	O'ZBEK TILIDAGI SAN'AT TERMINLARI TARJIMASIDA MILLIY O'ZIGA XOSLIK VA LINGVISTIK TAHLIL	430
Ҳожиева Гулчеҳра Салимовна	САНЪАТ ТЕРМИНЛАРИ ТАРЖИМАСИНИНГ ЛИНГВО-МАДАНИЙ ХУСУСИЯТЛАРИ (француз ва ўзбек тиллари мисолида)	433